

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligi, “Profi University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
“Xalq ta’limi info” tahririyati o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik
MEMORANDUMI**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari Boqiev Farhod Esonovich, “Profi University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi rektori Shoumarov G‘ayrat Baxromovich hamda “Xalq ta’limi info” tahririyati direktori Po‘latov Ulug‘bek Shavkat o‘g‘li, quyidagilar to‘g‘risida memorandum imzoladilar:

I. Memorandum predmeti

1.1. Mazkur hamkorlik memorandumini bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, “Profi University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi hamda “Xalq ta’limi info” tahririyati bundan buyon hamkorlikda (keyingi o‘rinlarda “Tomonlar” deb yuritiladi), O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish, Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyalari hamda mamlakat ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining strategik dasturlariga muvofiq fundamental, innovatsion va amaliy tadqiqotlar sohasida davlat siyosatini yuritish maqsadida universitet bilan davlat ta’lim muassasasi o‘rtasida o‘zaro manfaatli amaliyotni tashkil etishda innovatsion va korporativ hamkorlikni amalga oshiradi.

Tomonlar hamkorlikni o‘zaro hurmat, ishonch va shakllangan amaliyot asosida amalga oshiradilar.

1.2. Tomonlar mazkur Memorandum asosida amalga oshirilishi nazarda tutilayotgan hamkorlik sohasidagi faoliyatni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida amalga oshirishga kelishadilar.

II. Memorandumning maqsadi

Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro integratsion aloqalarni yo‘lga qo‘yish, pedagog xodimlarni shaxsiy rivojlantirish, ulardagi stress darajasini tahlil qilib borish hamda ularga doimiy ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, fan va ta’lim hamkorligini ta’minlash orqali tomonlarning ilmiy salohiyati va amaliy tajribasidan birgalikda samarali foydalanish maqsadida innovatsion guruhlarni yaratish.

III. “Tomonlar”ning asosiy hamkorlik yo‘nalishlari

“Stressiz ta’lim” loyihasini Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi hamda “Profi University” nodavlat oliy ta’lim muassasasining malakali professor-o‘qituvchilari tomonidan amalga oshirish;

“Stressiz ta’lim” loyihasi doirasida pedagog xodimlarni shaxsiy rivojlantirish, ulardagi stress darajasini tahlil qilib borish va ularga doimiy ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish;

loyihaga respublikadagi barcha rahbar va pedagog xodimlarni jalb qilish maqsadida @stressiz_talimbot orqali ro‘yxatdan o‘tishlarini tashkil etish;

“Stressiz ta’lim” loyihasi doirasida dastlab tajriba-sinov tariqasida tanlab olingan ta’lim muassasalari pedagog va rahbar xodimlaridagi stress darajasini o‘rganish va tahlil qilish;

tahlil natijalari asosida pedagog va rahbar xodimlarga o‘quv-trenning mashg‘ulotlarini o‘tkazish hamda ularga ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish;

rahbar va pedagog xodimlarga stresslarni yengish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va soha mutaxassislari uchun o‘quv seminarlar tashkil etish bo‘yicha hamkorlik qilib borish;

umumta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari uchun o‘tkaziladigan o‘quv-trenning mashg‘ulotlarini malakali professor-o‘qituvchilar va soha mutaxassislari tomonidan o‘tkazilishini ta’minlashda hamkorlik qilish;

fan, ta’lim va ishlab chiqarishdagi istiqbolli innovatsion metodlarni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish;

ta’lim tuzilmasi, mazmuni va uni amalga oshirish shart-sharoitlari, shuningdek, ta’lim oluvchilarining jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy, kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan talablarni takomillashtirish orqali mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish;

ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malaka va amaliy ko‘nikmalar berish, shuningdek, ularning kasbiy kompetentligi amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli tadbirlarni amalga oshirish;

talabalar uchun ko‘chma o‘quv mashg‘ulotlari va amaliyot uchun sharoitlar yaratish;

kelishuv asosida ta’lim-tarbiya tizimining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha seminarlar, treninglar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, shuningdek, ko‘rik-tanlov va ko‘rgazmalar tashkil etish;

loyihaning maqsad va vazifalari, amalga oshirish muddati, shuningdek rahbar va pedagog xodimlar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar natijalari haqida muntazam axborot berib borish;

loyiha doirasida amalga oshiriladigan ishlarni muvofiqlashtirib borish, shuningdek rahbar va pedagoglar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalarni “Xalq ta’limi info” tahririyatining barcha ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtirish;

loyihaning maqsad va vazifalari, uni o‘tkazilish muddati hamda loyihani amalga oshirish tartibini Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshliqlari o‘rtasida keng targ‘ib qilishga, loyihani o‘tkazish yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritishga ko‘maklashish.

IV. Memorandumning maxsus shartlari

Ushbu memorandumda tomonlarning moliyaviy majburiyatlari ko'zda tutilmagan. Ushbu Memorandum Tomonlarga hech qanday yuridik majburiyatni yuklamaydi.

Memorandumda Tomonlarning ishtiroki boshqa shunga o'xshash hujjatlarga nisbatan mutlaq yoki ustuvor emas deb belgilangan va Tomonlarning bunday hujjatlarda ishtirok etish huquqlarini cheklamaydi.

Ushbu Memorandum doirasida olib borilayotgan hamkorlik faqat Tomonlarning xayrixohligi, tenglik, o'zaro hurmat, vijdonlilik tamoyillari va eng ustuvor maqsad sifatida ta'lim sifatini rivojlantirish va oshirishga birgalikda hissa qo'shish istagi asosida amalga oshiriladi.

V. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

Mazkur memorandum xalqaro hujjat hisoblanmaydi va Tomonlar uchun xalqaro yoki milliy huquq asosida huquq va majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi.

VI. Amal qilishni to'xtatish

Har bir Tomon o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda ushbu Memorandumning amal qilishini vaqtincha, to'liq yoki qisman to'xtatib qo'yish huquqiga egadir. Bunday to'xtatish boshqa Tomonni asoslantirilgan xat orqali xabardor qilinganidan so'ng darhol amal qila boshlaydi.

VII. O'zgartish va qo'shimchalar

7.1. Har bir Tomon ushbu Memorandumga yoxud uning bir qismiga o'zgartish yoki qo'shimcha kiritishni yozma ravishda taklif etishi mumkin.

7.2. Tomon Memorandumga kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risidagi taklifini yozma ravishda ikkinchi Tomonga yuborishi lozim.

7.3. Tomonlar o'zaro kelishgan har qanday o'zgartish va qo'shimchalar yozma ravishda ushbu Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadigan va Tomonlar belgilangan kundan boshlab kuchga kiradigan Bayonnomalar shaklida rasmiylashtiriladi.

7.4. Har qanday o'zgartish va qo'shimchalar ularning kuchga kirguniga qadar ushbu Memorandumdan kelib chiqqan yoki unga asoslangan Tomonlarning huquq va majburiyatlariga ta'sir etmasligi lozim.

VIII. Nizolarni hal qilish

Ushbu Memorandum qoidalarini talqin qilish, bajarish va qo'llashda Tomonlar o'rtasida vujudga keladigan har qanday kelishmovchilik yoki nizolar Tomonlar o'rtasida maslahatlashuvlar yoki muzokaralar yo'li bilan do'stona ravishda hamjihatlik asosida hal etiladi.

IX. Kuchga kirish, amal qilish va o'z kuchini yo'qotish

9.1. Ushbu Memorandum imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2 yil muddat davomida amal qiladi.

9.2. Tomonlar o'zgacha kelishmagan taqdirda, bu muddat o'z-o'zidan keyingi 2 yillik muddatga uzayadi.

9.3. Mazkur modda qoidalaridan qat'iy nazar, Tomonlarning har biri boshqa Tomonni ushbu Memorandum amal qilishini tugatish niyati borligi to'g'risida istagan vaqtda, bu niyatni amalga oshirish sanasidan kamida ikki (2) oy oldin yozma ravishda xabardor qilib, uning amal qilinishini tugatishi mumkin.

9.4. Ushbu Memorandumning tugatilishi, uning tugatilishi sanasidan avvalroq kelib chiqqan yoki unga asoslangan Tomonlarning huquq va majburiyatlariga ta'sir etmasligi lozim.

9.5. Mazkur Memorandum bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan uch asl nusxada tuzilgan bo'lib, Tomonlarning har biriga bir nusxadan taqdim etiladi.

Yuqoridagilarni tasdiqlab, o'z tomonidan quyida imzo chekuvchilar ushbu Memorandumni imzoladilar.

**O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vaziri o'rinbosari**



F.Boqiyev

Toshkent sh.,
2024-yil 28 - 05

**“Profi University” nodavlat oliy
ta'lim muassasasi rektori**



G'.Shoumarov

Toshkent sh.,
2024-yil 28 - 05

**“Xalq ta'limi info” tahririyati
direktori**



U.Po'latov

Farg'ona v.,
2024-yil 28 - 05